



## 2021- yilning yanvar-mart oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida jami **570,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **104,5 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.04.2020- yil	01.04.2021- yil	
	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1889</b>	<b>2048</b>	<b>108,4</b>
	<b>Jizzax sh.</b>	<b>824</b>	<b>883</b>	<b>107,2</b>
	<b>tumanlar:</b>			
	<b>Arnasoy</b>	<b>54</b>	<b>57</b>	<b>105,6</b>
	<b>Baxmal</b>	<b>73</b>	<b>70</b>	<b>95,9</b>
	<b>G'allaorol</b>	<b>111</b>	<b>137</b>	<b>123,4</b>
	<b>Sh. Rashidov</b>	<b>335</b>	<b>352</b>	<b>105,1</b>
	<b>Do'stlik</b>	<b>49</b>	<b>64</b>	<b>130,6</b>
	<b>Zomin</b>	<b>124</b>	<b>120</b>	<b>96,8</b>
	<b>Zarbdor</b>	<b>82</b>	<b>107</b>	<b>130,5</b>
	<b>Zafarobod</b>	<b>23</b>	<b>24</b>	<b>104,3</b>
	<b>Mirzacho'l</b>	<b>43</b>	<b>52</b>	<b>120,9</b>
	<b>Paxtakor</b>	<b>73</b>	<b>77</b>	<b>105,5</b>
	<b>Forish</b>	<b>59</b>	<b>62</b>	<b>105,1</b>
	<b>Yangiobod</b>	<b>39</b>	<b>43</b>	<b>110,3</b>


## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.04.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (43,1 %), Sh. Rashidov (17,2 %) va G'allaorol (6,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **17,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **22,2** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **167,3** % punktga ko'paydi.

## 2021- yilning yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zafarobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,3 %**), Jizzax shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,0 %**), Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,9 %**) ga to'g'ri keldi




**Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,9 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **1,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etgan holda **410,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,0 %** ni tashkil etdi yoki **142,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **103,5 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **18,3** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **552,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-mart oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,3 %** i yoki **458,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

80,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **12,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi

2,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **314,8** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **68,7 %** ni tashkil etdi.

68,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **131,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,6 %** ni tashkil etdi.

28,6 %




**2021- yilning yanvar-mart oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>570,8</b>	<b>104,5</b>	<b>458,4</b>
Jizzax sh.	215,2	103,9	145,5
tumanlar:			
Arnasoy	8,2	103,4	6,5
Baxmal	17,8	102,7	15,7
G'allaorol	30,7	104,1	24
Sh. Rashidov	121,9	105,0	120,1
Do'stlik	18,6	104,6	13,3
Zomin	34,2	113,9	25,5
Zarbdor	22,0	102,0	19,7
Zafarobod	25,9	102,6	23,2
Mirzacho'l	9,8	100,6	7,2
Paxtakor	28,4	102,3	25,6
Forish	22,6	106,4	18,6
Yangiobod	15,5	103,5	13,5



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamayib, **67,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga kamayib, **30,3 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



**Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **13,3 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **7,0 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,5 %** (**8,9 %** punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi **2,2 %** (**1,9 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **0,5 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **0,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **99,5 %** (**0,5 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-mart oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>570,8</b>	<b>466,5</b>	<b>64,1</b>	<b>40,2</b>
Jizzax sh.	215,2	175,8	24,3	15,1
tumanlar:				
Arnasoy	8,2	6,7	0,9	0,6
Baxmal	17,8	14,6	1,9	1,3
G'allaorol	30,7	25,1	3,4	2,2
Sh. Rashidov	121,9	99,6	13,7	8,6
Do'stlik	18,6	15,2	2,1	1,3
Zomin	34,2	28	3,8	2,4
Zarbdor	22,0	17,9	2,6	1,5
Zafarobod	25,9	21,2	2,9	1,8
Mirzacho'l	9,8	8,0	1,1	0,7
Paxtakor	28,4	23,2	3,2	2,0
Forish	22,6	18,5	2,5	1,6
Yangiobod	15,5	12,7	1,7	1,1

\*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **37,7 %** i yoki **175,9** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **21,4 %** i yoki **99,6** mlrd. so'm), Zomin tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **6,0 %** i yoki **28,0** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (72) 221-53-73**